

## TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lism fakulteti maktabgacha va  
boshlang'ich ta'lismda xorijiy til (ingliz tili)  
yo'nalishi 2- kurs talabalari*

**Xolmirzayeva Umida Diyorbek qizi**

**Mirjalilova Zarina Jalol qizi**

*Ilmiy rahbar Boshlang'ich ta'lism nazariyasi  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Artikova Nargiz Shuxratovna**

**Annotastiya:** *Ta'lism metodlarida o'r ganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, ta'lism metodi, ta'lism usuli, qoida, interfaol metod, metodika, texnalogiya, didaktik vosita, ta'limga texnik vositalari*

“Metod” so'zining yunoncha tarjimasi “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li” kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiylar tarzda “maqsadga erishish usullar” deya sharhlangan.

Ayni vaqtida pedagogik manbalarda “ta'lism metodi” tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Shuningdek, ta'lism metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlarini usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

Ta'lism metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lism metodi o'zida umumiylar holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi».

1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, “ta'lism metodi” tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylilik mavjud. Aksariyat mualiflar “ta'lism metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari” degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lism metodlari ta'lism jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lism metodlari ta'lism maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lism mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funktsiyalarini bajaradi:

Bu funktsiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funktsiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

“Ta'lim metodi” atamasi bilan birga ko‘p hollarda “metodik usul” (sinonimlari: pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi:

- Didaktik maqsad asosida;
- Ta'lim mazmuni asosida;
- O'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- O'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g’ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Metod, bir tomonidan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomonidan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Shu o'rinda ta'lim berishda ta'limning ma'lum vositalaridan foydalilanadi. Ya'niki, ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funktsiyalarini bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;

- o‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi;
- o‘quvchilami idrok qilishga yo‘naltiradi;
- o‘quvchilarda bilimlami egallahsga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashi ichni, o‘quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o‘quv ishiga nisbatan o‘quvchilarda emotSIONAL munosabatni oshirishni ta’minlaydi;
- bilimlami nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning barcha turlari va vositalari yaratilib berilayotgan sharoitlarning barchasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni kuchli bilimga ega holda tarbiyalashga va yetuk kadrlarni yetishtirib berishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xodjayev B. X. Umumiy Pedagogika 93-105
2. IBODULLA SHAYMARDONOV, 456, Annotatsiya , 1-amaliy, 2-amaliy , 39, 1-ma\’ruza, Pedagogika tarixi fan sifatida.
3. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi, kommunikativ qobiliyat ped.ta\’sir ko\’rsatish, Тарбия.
4. Ona tili va uni o‘qitish metodikasi
5. G’ulomjonova, D., & Artikova, N. (2023). BOSHLANG‘ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 112-117.
6. Shuxratovna, A. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 1592-1594.
7. SHuxratovna, A. N., & Muxiddinovna, I. S. (2023). INGLIZ TILI DARSLARIDA TOVUSHLARNI TO‘G’RI TALAFFUZ QILISHNI O‘RGATISH. Gospodarka i Innowacje., 35, 305-309.
8. Shukhratovna, A. N., & Irodakhon, K. (2023). English Teaching Elements in Primary School Using Clil Technology. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 790-793.
9. Shuxratovna, A. N. Abduvosiyeva Zuhra Isroil qizi.(2023). XORIJY TILLARNI O'QITISH VA UNING XUSUSIYATLARI. IQRO JURNALI, 2(1), 331-340.
10. Artikova, N., & Nurmatova, S. (2023). PROJECT OF TEACHING THE WORLD OF ANIMALS IN ENGLISH CLASSES. Modern Science and Research, 2(5), 1136-1139.
11. Shukhratovna, A. N. (2023). THE INSTRUCTIVE LIFE PATHS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR FOR ALL. PEDAGOG, 6(2), 567-569.
12. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.

13. qizi, D. G. B. ., Darxonova Gulmira Burxon qizi, Yakubova Intizor Zafarovna, & Shuxratovna, A. N. . (2024). O'YINNING PEDAGOGIK JARAYONDA TUTGAN O'RNI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 3(4), 125–128. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/501>
14. Isroilova Sevinch Aqilbek qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI NATIJA OLISHNING QIZIQARLI YONDASHUVLARI. Scientific Impulse, 2(19), 108–110. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/15153>
15. Shuxratovna, A. N. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 116-118.
16. Raximboyeva Gulsanam Gulmirza Qizi, & Artikova Nargiz Shuxratovna (2024). SU'NIY INTELLEKT: FOYDALIMI YOKI ZARARLI ?. Science and innovation, 3 (Special Issue 18), 691-693. doi: 10.5281/zenodo.10806277